

Korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi haqida HISOBOT


2024-yil davomida amalga oshirilgan tadbirlar bo'yicha

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar
<i>2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli Farmonning 1-ilovasi</i> Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023–2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi bo'yicha			
1.	Davlat organlari va tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalariga kelib tushayotgan mablag'larning sarflanishi ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish. 5-band.	25.03.2024-y.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturining 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati bilan bog'liq ochiq ma'lumotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6247-sonli Farmoniga qo'shimcha kiritish haqida"gi Farmoni (ID-94710) (V-4) loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishildi hamda Adliya vazirligidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Farmon loyihasi ko'rib chiqish uchun 2024-yil 19-martdagi 04/36-1-617-sonli xat bilan Vazirlar Mahkamasiga yuborilgan.
2.	Davlat xaridlari tartib-taomillarini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlash. 11-band	25.03.2024-y.	Mazkur topshiriq yuzasidan takliflar joriy yilning 26-martida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga tegishli xat bilan (09/44-2-6570-sonli) yuborilgan. Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan joriy yilning 31-mayidagi 01-10/3272-sonli xat bilan kelib tushgan O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuniga qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi (ID-99871, V-1) ko'rib chiqilib, tegishli takliflar (09/44-2-12786-sonli xat bilan) agentlikka taqdim etilgan.
3.	Davlat xaridlarida tovar (ish va xizmatlar)ning narxlarini nazorat qilish mexanizmlarini yaratish. 12.1-band.	25.12.2023-y.	Topshiriq ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli "Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tasdiqlandi.

			Mazkur qarorining 8-bandiga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat xaridlari maxsus axborot portalida davlat buyurtmachilari amalga oshirgan davlat xaridlari natijalariga ko‘ra tovarlar (ishlar, xizmatlar), shu jumladan, ularning turlari kesimida shakllangan narxlarni jamoatchilik uchun ochiq ifodalovchi alohida sahifa joriy etish, davlat buyurtmachilariga ushbu sahifa asosida boshlang‘ich narxni shakllantirish imkoniyatini yaratish belgilangan bo‘lib, mazkur imkoniyat amaliyotga joriy etildi.
4.	Davlat xaridlarida tovar (ish va xizmatlar)ning narxlarini nazorat qilish mexanizmlarini yaratish. 12.2-band.	27.05.2024-y.	Tovar (ish va xizmatlar)ning boshlang‘ich narxlarini maxsus axborot portalida e‘lon qilib borish amaliyoti joriy etildi.
5.	Davlat xaridlarini amalga oshirishda yagona yetkazib beruvchilarni belgilashning shaffof tizimini yaratish. 13.1-band.	25.01.2024-y.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 28-dekabrda 03-PA 2/1-3335-sonli topshiriq‘i ilovasining 323-bandiga asosan, mazkur topshiriqning ijro muddati 2024-yil 25-may kuniga qadar uzaytirilgan. Mazkur topshiriq yuzasidan Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritish haqidagi arizani vakolatli organ va tegishli mas‘ul vazirlik, idoralarning mas‘ullaridan iborat komissiya tomonidan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rib chiqish yuzasidan davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori loyihasi (ID-97247) ishlab chiqilgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 2-iyuldagi 09/44-4-13799-sonli xati bilan belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritildi.
6.	Davlat xaridlarini amalga oshirishda yagona yetkazib beruvchilarni belgilashning shaffof tizimini yaratish. 13.2-band.	25.01.2024-y.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 28-dekabrda 03-PA 2/1-3335-sonli topshiriq‘i ilovasining 323-bandiga asosan, mazkur topshiriqning ijro muddati 2024-yil 25-may kuniga qadar uzaytirilgan. Dasturning 13.2-bandida yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzish jarayonlarini elektronlashtirish, ya‘ni maxsus axborot portali orqali tuzilishini joriy qilish ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu topshiriq ijrosini ta‘minlash maqsadida davlat xaridlari elektron tizimining operatorlari – “O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi” AJ va “XT Xarid texnologiyalari” AJ

			elektron tizimlarida to'g'ridan to'g'ri, shu jumladan, yagona yetkazib beruvchilar bilan elektron shartnomalar tuzish imkoniyati yaratildi.
7.	Davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunbuzilish holatlarini sudlarda ko'rib chiqish bo'yicha yagona amaliyotni shakllantirish. 14-band.	25.05.2024-y.	Xorijiy tajribani o'rgangan holda davlat xaridlarini amalga oshirishda qonunbuzilish holatlarini sudlarda ko'rib chiqish bo'yicha yagona amaliyotni shakllantirish bo'yicha tegishli takliflar (09/44-2-12020-sonli xat bilan) Oliy Sudga yuborilgan.
8.	Davlat organlari va tashkilotlariga tegishli korporativ bank kartalari orqali xaridlarni amalga oshirish jarayonini tartibga solish. 15-band.	25.04.2024-y.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PQ-249-sonli Qaroriga ko'ra, mazkur topshiriqning ijro muddati 2024-yil 1-dekabr kuniga qadar uzaytirilgan. Vazirlar Mahkamasining "Davlat buyurtmachilari tomonidan milliy valyutadagi korporativ bank kartalari (xarid kartalari) orqali davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori loyihasi Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi orqali (ID-2375) (V-1) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishildi, jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi, shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shuningdek, ushbu qaror loyihasi belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan (Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 3-dekabr 09/44-2-25063-sonli xati). Bugungi kunda ushbu qaror loyihasi Vazirlar Mahkamasida ko'rib chiqilmoqda.
9.	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Xalqaro moliya-tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha konvensiyasiga qo'shilish masalasini o'rganish. 28-band.		Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Xalqaro moliya tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha konvensiyasiga qo'shilish masalasini o'rganish hamda unga qo'shilish bo'yicha tayyorlangan tahliliy ma'lumotnomalar bo'yicha taklif va e'tirozlar mavjud emasligi 2024-yil 24-iyundagi 09/21-13142-sonli xat bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga ma'lum qilingan.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish va
komplyens nazorati bo'limi boshlig'i**

 **F. Berdiyev**

